

RAVISH SO‘Z TURKUMINING PRAGMASEMANTIK XUSUSIYATI

Shahnoza O‘dayeva Shuxratovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ravish so‘z turkumining pragmasemantik jihatlari lingvistik nuqtayi nazaridan tahlilga tortiladi. Aytish joizki, ravish so‘z turkumi og‘zaki nutqdagi ishtirokiga ko‘ra individual holati yoki kontekstdagi mazmunini nazarda tutgan holda pragmasemantik ma‘no hosil qiladi. Ravishlardagi ushbu pragmasemantik jihat ulardagi oddiy ma‘nolardan tashqari matnga bog‘liq holdagi mazmuni ham o‘zida yaqqol namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: ravish turkumi, pragmasemantik xususiyat, kontekst, niyat, og‘zaki nutq, individual holat.

Abstract. In this article, the pragmaticsemantic aspects of the idiomatic word group are analyzed from the linguistic point of view. It is worth saying that a phrase of speech creates a pragmasemantic meaning according to its participation in oral speech, referring to its individual situation or its content in context. This pragmatic-semantic aspect of idioms reveals their text-dependent content in addition to their simple meanings.

Keywords: behavioral group, pragmasemantic feature, context, intention, oral speech, individual situation.

Абстрактный. В данной статье прагматико-семантические аспекты идиоматической группы слов анализируются с лингвистической точки зрения. Стоит сказать, что фраза речи создает прагматическое смысловое значение в зависимости от ее участия в устной речи, отсылая к ее отдельной ситуации или ее содержанию в контексте. Этот прагматико-семантический аспект идиом раскрывает, помимо их простых значений, их текстозависимое содержание.

Ключевые слова: поведенческая группа, прагматико-семантический признак, контекст, интенция, устная речь, индивидуальная ситуация.

Ravish so‘z turkumi mustaqil so‘z turkumlaridan biri hisoblanib, u fe'lga xos xususiyatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Uning sifat turkumidan asosiy farqi ham aynan shu orqali namoyon bo‘ladi (sifat otga xos xususiyatlarni jamlaydi). Ravish so‘z turkumining nutqiy muloqotda qay tarzda namoyon bo‘lishi uning pragmatikasiga bog‘liq sanalsa, matn tarkibida qanday mazmun anglatishi undagi keyingi ma‘noning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Bizning ushbu maqolamizda ravishning pragmasemantik jihatlarini yaqqol namoyon etishga qaratilgan.

Pragmasemantik xususiyat bu tilning pragmatikasini, ya'ni individual holatda anglatgan ma'nosi va uning kontekst ichida anglashilgan mazmuni hamda ularning ma'no shakllari birlashgan holda shakllangan til xususiyatlari birlashgan holda yuzaga kelgan lingvistik jihati sanaladi. Ravish so‘z turkumining pragmasemantik xususiyati quyidagicha shakllanadi[3]:

a)kontekstga bog‘liq holatda;

b)so‘zning omonimlik va ko‘p ma'nolilik xususiyatidan kelib chiqqan holda;

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

d) so‘zlovchining niyatiga daxldor tarzda.

Pragmasemantikada ravish turkumi o‘z odatiy ma’nosidan tashqari matnga bog‘liq ravishda qanday ma’no yuzaga keltirishi mumkin degan savol o‘rtaga tashlanadi. Bunda alohidalik(individuallik) va matn ichidagi holat birlashib umumiylik hosil qiladi[4]. Ravishlardagi ushbu omil kontekstga qarab ma’no o‘zgarishining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, so‘zlarning bir necha ma’noli bo‘lishiga imkon beradi. Ravishlarning pragmasemantikasini aniqlashda kontekst va gapiruvchining niyatini hisobga olish lozim.

Ravishlardagi pragmasemantik xususiyatlarni aniqlash ularning ma’no darajasining tadrijiy shakllanishiga ham ta’sir qiladi. Ya’ni og‘zaki nutqda individual holda qo‘llangan miqdoriy ravishlar og‘zaki va yozma kontekstda bir xil vaziyatning yuzaga kelishiga, ya’ni darajalanish holatining barqarorlashuviga yordam beradi. Ushbu so‘z turkumining pragmasemantik jihatlarini aniqlashdagi asos so‘zlovchining niyatidir. Quyidagi misollarga e’tibor bering:

U juda charchadi.

Juda so‘zi ravish hisoblanib, uning gapdan ajralgan holda alohida qo‘llanishi quyidagi mazmuni kasb etadi: "*Ortiq, nihoyat darajada, haddan tashqari, g‘oyat; nihoyatda, benihoya*". Undagi ma’no nozikligi shundan iboratki, u sintaktik birikma, ya’ni kontekst ichida turli ma’no o‘zgarishlarini yuzaga keltirish mumkin. So‘zlovchining niyatiga ko‘ra salbiy, ijobiy bo‘yoqdorlik yoki umumiy neytral holat ushbu leksik birlikda namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan gapdagi ravishning pragmasemantik xususiyati uning neytral usulda namoyon bo‘lganligidir - uslubiy bo‘yoqdorlikdan xolilik ravishning asosiy jihati tarzida namoyon bo‘lmoqda. Yoki quyidagi gaplarni tahlil qilsak:

1. *Komila juda shirin qiz edi.*
2. *Uning aytgan gaplari juda og‘ir botdi.*

Birinchi gapdagi juda leksik birligi shirin so‘zi bilan birikib sintaktik tuzilmaga ijobiy bo‘yoqdorlik yuklasa, ikkinchi gapda ushbu mazmun salbiylik orqali ifodalanmoqda. Demak, juda ravishining pragmasemantik xususiyati, asosan, gap tarkibida shakllanib, so‘zlovchining maqsadiga bog‘liq holda uslubiy ko‘rinish kasb etyapti. "Asta" mustaqil so‘zi ham ravish sanalib, uning quyidagi ma’nolari mavjud[1]:

1. *Past tezlik bilan, sekin.*
2. *Past darajadagi, sekin.*
3. *Sezilar-sezilmas darajada sekin harakat qilmoq.*

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yuqoridagi keltirilgan ma'nolar faqatgina kontekst tarkibida yaqqol namoyon bo'ladi, ularni gapdan ajralgan individual holatida qayd etilgan semantik jihatlarni aniqlash qiyin.

1) Aziza uyiga tomon asta-asta qadamlar bilan keta boshladi - keltirilgan misolda subyektning past tezlik bilan, sekinlikda yo'lga tushganlik harakati aks ettirilgan.

2) U shu darajada asta gapirar ediki, hatto yoniga borib ham eshita olmadim - namuna sifatida berilgan ushbu gapdagi inson ovoz tonining chastotasiga nisbatan qo'llangan asta leksik birligi ovoz holatining past ekanligidan dalolat bermoqda.

3) Yelkamga asta qoqib qo'ydi - ushbu kontekstda ishtirok etgan asta birligi holatning sekinlik bilan amalga oshirilganligini ifodalab kelmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ravish so'z turkumining pragmasemantik xususiyati, asosan, u ishtirok etgan gapda namoyon bo'ladi. Uning alohida qo'llangan shakli esa undagi umumiylik ifodasining namoyon bo'lishi bilan baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Thomas Edward Payne, ? id=LC3DfjWfCiwC Describing Morphosyntax: A Guide for Field Linguists, CUP 1997, p. 69.
2. Rodney D. Huddleston, Geoffrey K. Pullum, A Student's Introduction to English Grammar, CUP 2005, p. 122ff.
3. Thomas Edward Payne, Describing Morphosyntax: A Guide for Field Linguists, CUP 1997, p. 69.
4. Huddleston, Rodney (1988). English Grammar: An Outline. Cambridge: Cambridge University Press. p. 7. ISBN 0-521-32311-8.
5. Cinque, Guglielmo. 1999. Adverbs and functional heads—a cross linguistic perspective. Oxford: Oxford University Press.
6. Haegeman, Liliane. 1995. The syntax of negation. Cambridge: Cambridge University Press.